

**CHERRI POMIDORNI ISSIQXONALARDA YETISHTIRISHDA
MAQBUL EKISH SXEMASINI O'SIMLIKNI BIOMETRIK
KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI**

Egamberdiyev Sobir Yo'ldoshevich
Toshkent davlat agrar universiteti PhD)

Annatotsiya: *Ushbu* maqolada Cherri pomidorni issiqxona sharoitda yetishtirishda maqbul ekish sxemalarini o'rganish natijalariga ko'ra, o'simliklar yer ustki qismini o'sishi bir tupning oziqlanish maydonini ortib borishiga bog'liq bo'lib, nisbatan kuchli o'sib rivojlangan $\frac{(80+60)}{2} \times 40$ sm li ekish sxemasida aniqlanganligi ekanligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: *cherri, pomidor, issiqxona, fotosintez, harorat, namlik, nav, navmunalar tanlash, ekish sxemasi.*

Kirish Oxirgi yillarda Respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlarini suv bilan ta'minlash muammosi yuzaga kelmoqda. Suv tanqisligini oldini olish va resurtejamkor texnologiyalarni qo'llash va suvdan oqilona foydalanish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli keyingi paytda tuproq namligini saqllovchi, suvni tejovchi va cho'l xududlarda ham o'simliklarni o'sib rivojlanish imkonini beruvchi moddalar, usullar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashni talab etmoqda. Shu ma'noda biz tadqiqotlarimizda qo'llagan gidrogel moddasi ham shular qatoriga kiradi.

Tadqiqotning maqsadi Pomidorni issiqxonalarda cherri tipidagi nav namunalarini yetishtirish texnologik elementlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

cherri pomidorni issiqxonalarda nav namunalari qimmatli xo'jalik belgilari

(tezpisharligi, kasalliklarga chidamliligi, hosildorligi, meva sifati) bo'yicha baholash va istiqbolli navlarni ajratish;

Tadqiqot obekti: Tadqiqotning obekti sifatida cherri pomidorni 10 ta nav namunalari o'simligi va mevalari, 4 ta o'sishni boshqaruvchi va 1 ta suv tejovchi moddalar va 4 ta ekish usullari xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari: O'simlikni ekish sxemasi va o'simliklarni joylashish qalinligini to'g'ri tanlash, navlarni biologik xususiyatlarini hisobga olish hosildorlikni oshishi, harajatlarni kamayishida muhim ahamiyatga ega. Ular qishloq xo'jalik texnikalari va ekinlar assortimentini almashishiga va yangilanishiga sabab bo'ladi.

O'simlik qalinligi - bu kuyosh energiyasidan foydalanish, qulay yorug'lik, suv, havo va oziq moddalar rejimini yaratish bo'lib, u ko'p omillarga ya'ni texnika va navlarni doimo yangilanib borishi, qadimiylarini almashishiga bog'liqdir [160; 326-b., 304; 95–98-b.].

XIX asrning 70 yillarida E. Volni birinchi bor o'simlikni oziqlanish maydoni bo'yicha chuqur izlanishlar olib bordi. U shunday xulosaga keldiki, o'simlik ma'lum bir oziqlanish maydonga ega bo'lganda hosil yuqori cho'qqiga ega bo'ladi. Uning ortib borishi hosilni pasayishiga ham olib keladi. Bir o'simlikni mahsuldorligi oziqlanish maydonini ortib borishi bilan ko'tarilib boradi, avvaliga tezroq keyin esa sekin davom etadi. Oziqlanish maydon katta bo'lganda o'simlik tuproq va havo muhitidan to'liq foydalana olmaydi, kichik bo'lganda esa bir biriga soya qilib qiynaladi. Kamdan kam xollarda rivojlanishi va yaxshi bo'lishi mumkin. Uning fikricha, o'simlik oziqlanish maydonning kattaligi, tuproq unumdorligining ta'siriga ham bog'liq [160; 326-b., 250; 33–38-b., 253; 333–338-b.].

Tajribada cherri pomidorni issiqxonada istiqbolli, serhosil Blek cherri navini 4 ta ekish sxemasi bo'yicha izlanishlar o'tkazildi. Bunda ekish sxemasi $\frac{(90+50)}{2}$ qatordagi o'simliklar orasi 30, 40 sm li, oziqlanish maydoni 0,21, 0,28 m² va o'simlik qalinligi esa 47619, 35714 o'sim./ga hamda ekish sxemasi $\frac{(80+60)}{2}$ o'simliklar oralig'i 30, 40 sm, oziqlanish maydoni 0,21, 0,28 m² va o'simlik

qalinligi esa 47619, 35714 o'sim./ga bo'lgan 4 ta variant o'rganildi. Nazorat sifatida o'simliklar oralig'i 40 sm li ekish sxemasi olindi.

Tajribada pomidor urug'larini ekishga tayyorlash va ko'chatlarini yetishtirish tadbirlari yuqoridagi nav sinovi tajribasi singari bir xilda olib borildi.

Cherri pomidor turli ekish sxemalari bo'yicha fenologik kuzatuvlar olib borildi. Ammo urug'larni unib chiqishi, chinbarglar paydo bo'lishi va gullashi bo'yicha variantlar aro sezilarli farq bo'lmadi. Shu sabab o'simlik oziqlanish maydoniga kuchli ta'sir etuvchi yer ustki qismining o'zgarishlari bo'yicha ma'lumotlarni keltirdik.

Tajribada variantlar aro biometrik o'lchovlar o'tkazildi, bunda o'simlikning asosiy poyasi uzunligi, asosiy poya yaruslari soni va barglar soni bo'yicha xisoblash ishlari olib borildi (5.20-jadvalga qarang).

O'rganilgan ekish sxemalari bo'yicha o'simlikning asosiy poyasining uzunligi urug'lar unib chiqqandan 62 kun o'tganda kuzatish natijalariga ko'ra, 92-98 sm ni, 80 chi kungi kuzatuvlarda 192 sm dan 205 sm gacha o'sganligi ma'lum bo'ldi. O'simlik o'suv davrining oxirlarida ya'ni 117 kungi kuzatuv natijalariga ko'ra, sxemalar aro 264 sm dan 283 sm gachani tashkil etdi.

Tajribada har uchchala kuzatuvlarda ham asosiy poyaning uzunligi eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan $\frac{(80+60)}{2} \times 40$ sm ekish sxemasi bo'lib, (117 kunda-283 sm) nazoratga nisbatan 8 sm yuqori bo'lganligi, $\frac{(90+50)}{2} \times 30$ sm ekish sxemasida esa (117 kunda- 277 sm) nazoratga nisbatan 2 sm yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Asosiy poyaning uzunligi, poyadagi yaruslar soniga bog'liq bo'lib, natijalariga ko'ra, oxirgi kuzatuvda eng ko'p yarus soniga ega bo'lgan $\frac{(80+60)}{2} \times 40$ sm li ekish sxemasida 50 donani, nazoratga nisbatan 4 dona yuqori bo'lganligi kuzatildi. Oxirgi 80 va 117 kundagi kuzatuvlarda o'simliklarning poya uzunligi va yaruslar sonining farqli ravishda o'zgarib borishiga, cherri pomidorning ekish sxemasi va oziqlanish maydonining ta'siri bo'ldi (1-jadval).

1-jadval.

Cherri pomidorni Blek cherri navini har xil ekish sxemalarini o'simlik yer ustki qismini o'sishi va rivojlanishiga ta'siri (204 y.).

Ekish sxemalari, sm	Asosiy poya uzunligi (sm) kunlarda:			Asosiy poyadagi yaruslar soni (dona) kunlarda:			Barglar soni (dona) kunlarda:		
	62	80	117	62	80	117	62	80	117
$\frac{(90+50)}{2} \times 30$	92	192	264	10	16	46	14	29	50
$\frac{(90+50)}{2} \times 40$, nazorat	98	199	275	12	19	47	14	32	53
$\frac{(80+60)}{2} \times 30$	94	203	277	11	17	49	14	31	52
$\frac{(80+60)}{2} \times 40$	97	205	283	12	20	50	17	33	54

Tajribada har xil ekish sxemalarini o'rganishda barg soni ham sanab chiqildi. Albatta xosildorligining ko'payishi har bir o'simlikdagi barglar soniga bog'liq. Kuzatuvlar natijalarga ko'ra, 62 va 80 kungi kuzatuvlarda ekish sxemalar aro farqlanish yuqoriroq bo'ldi. Chunki issiqxonaning xarorati ushbu davrlarda mo'tadil emasligi ta'siri bo'ldi. Oxirgi 117 kundagi kuzatuv natijalariga ko'ra, nazoratga nisbatan har ikki ekish sxemasida xam o'simliklar orasi 30 sm li sxemalarda barg soni 1-3 donaga kam ekanligi aniqlandi. Tajribada o'simliklarni barg soni bo'yicha eng yuqori $\frac{(80+60)}{2} \times 40$ sm li ekish sxemasida (54 dona) kuzatildi. Bu albatta, o'simliklarning oziqlanish maydoni va qalinligini ortib borishi bir tupdagi barglar sonini ko'payishiga olib kelgan. Issiqxonada barglarning ko'p bo'lishi poyadagi shingillarning erta baxorda quyosh nuridan zararlanishini oldini oladi va meva shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авдеев Ю.И. Селекция томатов. – Кишинев: ШТИИНСА, 1982. – 284 с.

<https://scientific-jl.com/>

22-to'plam 1-son Avgust 2025

- 2.Алпатыев А.В. Помидорі. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
- 3.Арамов М.Х. Еколого-генетические основі селексии томата на устойчивост к патогенном и адаптивнууу способность. Автореф. дисс....доктора с-х. наук. СПб., 1994.-48 с.
- 4.Асатова С.С. Влиуание регулятора роста тетранила на рост, развитие и урожайност томата и огурса.// Автореф.канд.дисс. Tashкент.TashГАУ. 1995. С.6-7.
- 5.Брежнев Д.Д. Томаті. – Л.: Государственное издательство сельскохозяйуайственной литературы, 1955. – 351 с.
- 6.Бо‘риев Х.Ч, Сабзавот екинлари селексииуаси ва уруг‘чилиги. – Toshкент. Меһнат, 1999. – Б. 16-25.
- 7.Жуковский П.М. Культурніе растениуа и их сородичи. -3-е изд. Л., «Колос». 1971. - С. 265-272.
- 8.Колмікова Т.С. Влиуание продолжительности обработки семуан регуляторами роста на продуктивност сельскохозяйуайственніх растений. // Автореферат на соискание ученое степени кандидат сельского хозуайственній наук. – Саратов. СГУ, 2002. – 16 С.